



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-noyabr***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi***

***Tel. 79-223-50-43***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr oyi, foizda)




2024- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 662 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 657 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-noyabr, mlrd. so'mda)**



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)**



2024- yilning yanvar-noyabr oyida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 12 694,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 109,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 868,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 825,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,5%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 934,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 119,8 %) tashkil etdi.


**Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari**  
(2024- yil yanvar-noyabr oyi)

	<b>Jami, mlrd. so'm *</b>	<b>2023- yil yanvar-noyabr oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>12 694,3</b>	<b>109,5</b>
Navoiy sh.	4 045,2	108,6
Zarafshon sh.	1 260,6	112,4
G'ozg'on sh. <i>tumanlar</i>	11,7	105,8
Konimex	399,9	110,6
Qiziltepa	1 418,8	109,0
Navbahor	738,0	109,7
Karmana	1 481,3	111,3
Nurota	623,0	109,1
Tomdi	104,9	107,6
Uchquduq	593,3	108,4
Xatirchi	1 554,8	108,6

**\*) Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda**

2024- yilning yanvar-noyabr oyida 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan viloyatning Zarafshon shahri (112,4%), Karmana (111,3 %) va Konimex (110,6 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 33,1 % bilan 4 045,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, G'ozg'on shahri 0,1 % bilan 11,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda oʻsish kuzatildi.



#### Hajmi, mlrd. soʻm


Navoiy sh.	4 045,2
Xatirchi t.	1 554,8
Karmana t.	1 481,3
Qiziltepa t.	1 418,8
Zarafshon sh.	1 260,6
Navbahor t.	738,0
Nurota t.	623,0
Uchquduq t.	593,3
Konimex t.	399,9
Tomdi t.	104,9
G'ozg'on sh.	11,7






## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-noyabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 11 825,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 9,5 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,2 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 8,8 % ga o'sdi va 868,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,8 % ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Karmana (100,0 %), Uchquduq (99,6 %) va Tomdi (99,3 %) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy (12,0 %), Zarafshon (10,6 %) shaharlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

Navoiy sh.	24 786,8
Zarafshon sh.	14 132,1
G'ozg'on sh.	1 254,0
Konimex t.	10 720,8
Qiziltepa t.	8 709,6
Navbahor t.	6 068,7
Karmana t.	10 588,2
Nurota t.	6 921,9
Tomdi t.	6 811,1
Uchquduq t.	15 057,9
Xatirchi t.	7 251,9

2024- yilning yanvar-noyabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 11 725,8 ming so'm (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 107,5 %)ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (24 786,8 ming so'm), Uchquduq tumani (15 057,9 ming so'm) va Zarafshon shahri (14 132,1 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Izoh: Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlarida va Navoiy, Zarafshon shaharlarida chorva bozori mavjud emas.

G'ozg'on shahrida dehqon va chorva bozori mavjud emas.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr), foizda



- Chorva bozorlari



- Dehqon bozorlari

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari  
(2024- yil yanvar-noyabr)**

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>934,8</b>	<b>119,8</b>
Navoiy sh.	228,0	122,9
Zarafshon sh.	38,7	129,6
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex	41,2	109,5
Qiziltepa	89,2	116,6
Navbahor	12,3	124,7
Karmana	255,2	116,9
Nurota	52,1	111,2
Tomdi	9,6	123,0
Uchquduq	28,7	122,7
Xatirchi	179,8	124,6


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda (2024- yil yanvar-noyabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-noyabr)**



Navoiy viloyati bo'yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 934,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 119,8% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 590,8 mlrd. so'mni (121,6%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 344,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (116,9 %).












2024-yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 590,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (318,9 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>318,9 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>54,0 %</b></p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>73,6 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>12,4 %</b></p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>46,9 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>7,9 %</b></p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>24,0 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>4,1 %</b></p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>26,5 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>4,5 %</b></p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>15,3 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>2,6 %</b></p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>17,7 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>3,0 %</b></p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>25,0 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>4,2 %</b></p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>6,8 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>1,1 %</b></p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>27,4 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>4,7 %</b></p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>8,7 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>1,5 %</b></p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> 

2024- yilning yanvar-noyabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 344,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 286,3 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 54,9 mlrd. so'mni, otlar – 0,9 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>174,0 mlrd. so'm</b></p> <p> 50,5 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>51,8 mlrd. so'm</b></p> <p> 15,0 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>60,5 mlrd. so'm</b></p> <p> 17,6 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>40,3 mlrd. so'm</b></p> <p> 11,7 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>0,9 mlrd. so'm</b></p> <p> 0,3 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>14,6 mlrd. so'm</b></p> <p> 4,2 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,9 mlrd. so'm</b></p> <p> 0,3 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,5 mlrd. so'm</b></p> <p> 0,2 %</p>	<p><b>Quyونlar</b></p> <p><b>0,3 mlrd. so'm</b></p> <p> 0,1 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,2 mlrd. so'm</b></p> <p> 0,1 %</p>		



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 137 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 134 tani tashkil qildi.

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd. so'm *	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 589,2</b>	<b>113,8</b>
Navoiy sh.	197,1	114,2
Zarafshon sh.	88,8	124,2
G'ozg'on sh.	0,2	106,0
<i>tumanlar</i>	-	-
Konimex	7,7	106,5
Qiziltepa	28,4	112,2
Navbahor	57,8	97,2
Karmana	77,4	109,4
Nurota	10,0	117,2
Tomdi	2,2	105,8
Uchquduq	29,7	111,3
Xatirchi	39,3	111,0

*\*) Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

2024- yilning yanvar-noyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 589,2 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so‘m	Ulushi, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 535,4</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	1 507,0	42,6
Zarafshon sh.	14,9	0,4
G‘ozg‘on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex	8,5	0,2
Qiziltepa	186,9	5,3
Navbahor	19,1	0,5
Karmana	1 749,2	49,5
Nurota	9,6	0,3
Tomdi	0,1	0,1
Uchquduq	12,1	0,3
Xatirchi	28,0	0,8


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Karmana tumani (1 749,2 mlrd. so‘m), Navoiy shahri (1 507,0 mlrd. so‘m) va Qiziltepa tumani (186,9 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-noyabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 535,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 330,7 mlrd. so‘m, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi 2 204,7 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati 119,2 %)ni tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 894,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

17,1 % 666,5 mlrd. so‘m

**Yirik korxonalar**

82,9 % 3 227,8 mlrd. so‘m

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 3 227,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 82,9 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari (2024- yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd. so‘m *	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 894,3</b>	<b>107,2</b>
Navoiy sh.	1 670,7	110,5
Zarafshon sh.	161,0	112,7
G‘ozg‘on sh. <i>tumanlar</i>	0,3	118,6
Konimex	12,7	105,8
Qiziltepa	331,5	116,3
Navbahor	217,9	81,1
Karmana	714,8	100,9
Nurota	54,4	109,9
Tomdi	5,1	113,5
Uchquduq	144,5	113,9
Xatirchi	155,2	112,0

**\*) Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda**

2024- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 623 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 621 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar G‘ozg‘on shahri (118,6 %) , Qiziltepa (116,3 %) va Uchquduq (113,9 %) tumanida kuzatildi.